

GOSPITAL TA'LIM SHAROITIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR Ning XOTIRASINI RIVOJLANTIRISH VA MUSTAHKAMLASHNING SAMARALI USULLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15448689>

Baxieva Manzura

"Mehrli məktəb" Qoraqalpoq filiali tarbiyachisi

Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishining eng muhim bosqichlaridan biri xotiraning shakllanishi va rivojlanishidir.

Xotira-biz ilgari idrok qilgan, boshdan kechirgan va bajargan ishlarimizni yodda saqlash, keyinchalik ularni eslash yoki xotirlash jarayoni.

Bolalardagi xotira-bu bolalar rivojlanishining muhim jihatni bo'lib, ularning o'r ganish, tajriba olish va atrof-muhit bilan muloqot qilish qobiliyatlarini shakllantiradi. Bolalarning xotirasi yoshiga qarab o'zgaradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun bu jarayon ayniqsa muhim, chunki ularning kognitiv, hissiy va ijtimoiy ko'nikmalarini aynan shu davrda shakllanadi. Gospital ta'limi esa bolalarning sog'ligi bilan bog'liq bo'lgan maxsus sharoitda ta'lim olish jarayonini anglatadi. Bu sharoitlarda bolalar uchun ta'lim nafaqat ularning ta'lim olishini, balki sog'lom rivojlanishini ta'minlashga ham qaratilgan.

Uzoq muddatli kasallik bilan kurashib kelayotgan bolalarning xotirasi pasayishining bir nechta sabablari bo'lishi mumkin:

Kasallik tufayli bolada kelib chiqadigan kuchli stress holati;

Kasalxonada davolanishi sababli yaqinlaridan uzoqda bo'lishi, yakkalanib qolishi;

Uyqunning normal holatini buzilishi, haddan tashqari ko'p uqlash yoki uyqusizlik;

Tanaga yuboriladigan dori vositalar va soatlab qabul qilinadigan osma ukollar;

Kasallik va uning oqibati tufayli bolada kelib chiqadigan qo'rquv va xavotirlar.

Bunday hollarda bolalarga psixologik va hissiy yordam ko'rsatish, ta'lim jarayonlarini bolalarning ehtiyojlariga moslashtirish juda muhimdir.

Gospital ta'lim sharoitida bolalar sog'ligidagi muammolari tufayli bir joyda uzoq vaqt davomida qolishlari mumkin. Bu holat o'z navbatida ularning kognitiv rivojlanishi va xotirasi uchun turli qiyinchiliklar tug'diradi. Bunday sharoitda

maktabgacha yoshdagi bolalarning xotirasini rivojlantirish esa o'ziga xos metodlar va yondashuvlarni talab qiladi.

-Sog'likni tiklash jarayoniga moslashtirilgan mashqlar

-Sog'lom muhit yaratish

-Qiziqarli mashg'ulotlar

Uzoq muddat davolanayotgan maktabgacha yoshdagi bolalarning xotirasini rivojlantirish uchun quyidagi usullarni qo'llash samarali bo'lishi mumkin.

1. O'yinlar va interaktiv mashqlar.

Bolalar uchun xotirani rivojlantiruvchi o'yinlar, masalan, "Kimda nima bor?" yoki "Kartochkalarning joyini top" kabi o'yinlar ularning e'tiborini jamlaydi va eslab qolish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

2. Vizuallashtirish va hikoya qilish.

Bolalarga tasvirlar, rasmli kartochkalar yoki rasmlar yordamida hikoyalar to'qish, vizuallashtirish usuli bolalar uchun yangi ma'lumotlarni yodlashini osonlashtiradi.

3. Sensorik stimulyatsiya.

Turli ranglar, shakllar, tovushlar orqali bolalar bilan ishslash, ularning idrokini rivojlantirishga yordam beradi.

4. Musiqadan foydalanish.

Musiqa va ritm bolalar xotirasini rivojlantirishda samarali vositadir. Gospital ta'limda musiqa va ritm bolalarga nafaqat o'rganishga, balki dam olish va his-tuyg'ularini ifoda etishga yordam beradi.

5. Takrorlash va o'rganish.

O'rgatish jarayonida takrorlash juda muhimdir. Bolalar uchun qisqa va sodda topshiriqlarni takrorlash orqali eslab qolish ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin.

Eslab qolish va yodlash, bolaning kognitiv rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi va nutqni rivojlantirishga katta yordam beradi.

Eslab qolish jarayoni bolada so'z boyligini oshiradi, ona tilini tushunish qobiliyatini yaxshilaydi.

Eslab qolish orqali bolaning nutqini rivojlantirishda bir nechta samarali usullarni qo'llash mumkin.

- Badiiy asarlarni yodlash

- Qisqa hikoya va ertaklar

- So'z o'yinlari

- Savol-javoblar

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun xotirani rivojlantirishda o'yinlar, hikoyalar, jismoniy harakatlar va vizual materiallar samarali usullar hisoblanadi.

Teatr va dramatizatsiyaning bolalar xotira faoliyatiga ta'siri

So'zlash va eshitishdan ko'ra, ko'proq harakat va emotsiyalar bilan bajariladigan faoliyatlar, ayniqsa bolalarning xotiralarida mustahkam qoladi. Ertaklar aytib berish bolalar uchun juda qiziqarli, lekin ertakni rollar bilan jonlantirish, niqoblar, kiyimlar, ertak qahramonlari aks ettirilgan qo'lqoplar bolalarni tez o'ziga jalb qiladi. Teatrlashtirilgan o'yinlarning bir nechta turlari mavjud:

- Syujetli-rolli o'yinlar;
- niqob teatri;
- qo'lqop teatri;
- barmoq teatri:

Bolalar o'zlariga rol tanlashi orqali o'yin ishtirokchisiga aylanadi. O'sha muhitning ichiga kirib o'ynashi va his etishi orqali boshidan kechirganlari va rol asosida bajarganlarining asosiy qismi esida qoladi. Natijada rol tanlashi orqali bolada kasbga qiziquvchanlik kuchayib boradi. Keyingi teatrlashtirilgan o'yinlarda esa ular ixtiyoriy ravishda "Men u bo'laman", "Men shu rolni tanlayman" deb ishonch bilan o'z "Men" larini oshirib boradi.

Niqob kiyish orqali bolalar o'zlaridagi ba'zi xarakterlarini yashirishi, yoki aksincha yangi xislatlarini yuzaga chiqarishlari mumkin. Ya'ni bu bolalarda sirli bo'lishni, boshqalarga kayfiyat ulashish kabi tuyg'ularini shakllantirib boradi. Bu esa bolalarda yangi narsalarni eslab qolishga va yangilik yaratishga undaydi.

Qo'lqop teatri bolalarda qo'l motorikalarini rivojlantirish bilan bir qatorda aqliy va hissiy harakatchanlikni bir-biri bilan bog'laydi. Bunda bir vaqtning o'zida bir nechta obrazni yaratish imkoniyati yuzaga chiqadi.

Barmoq teatrida ham aynan qo'lqop teatri kabi bir nechta obrazni bir vaqtida bajarsa bo'ladi, bir vaqtida har xil obrazlarni yaratish bolalar xotirasini mustahkamlaydi, sababi ular har bir obrazning ovozini, harakatini, holatini va hikoyadagi vazifalarini eslab qolishga harakat qiladi. Bu hammasi tarbiyalanuvchilarda esda saqlash va xotira qobiliyatlarini yanada rivojlanishiga turtki bo'ladi

Gospital ta'limda tarbiyalanuvchilar uchun ta'lim faoliyatida sog'lom va stressiz muhit yaratish, ijobjiy emotsiyonal aloqalar va individual yondashuv bolalarning xotira qobiliyatlarini mustahkamlanishiga yordam beradi. Bu yosh davrida bolalarda xotira ko'proq obrazli va harakatli bo'ladi. Shuning uchun mashg'ulotlarda vizual, kam harakatli va musiqiy usullardan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alimova Nigora Israilovna, Tursunova Dildora Ziyadullayevna, Turakulova Nafisa Buranovna. (2023). GOSPITAL TA'LIMDA DARS TASHKIL QILISH: Pedagogical Science. *IQRO*, 5(1), 34–38. Retrieved from <https://wordlyknowledge.uz/index.php/iqro/article/view/1889>
2. <https://bolakadem.uz>
3. N.B.Goipova Inklyziv ta'lim. Gospital pedagogika: darslik / N.B.Goipova – Namangan, 2024, 252 bet.